

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN  
FOYDALANIB, MILLIY IQTISODIYOTNI YUKSALTIRISH  
(SINGAPUR TAJRIBASI)**

*Ibragimov G'anijon G'ayratovich- TDIU, "Innovatsion  
Menejment" kafedrasi PhD dotsenti,  
Erkinjonov Diyorbek Maxmudjon o'g'li- TDIU, "Menejment"  
Fakulteti, 3-kurs talabasi*

*Maqolada hozirgi kunda davlatning milliy iqtisodiyotini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida ko'rib, bu yuksalish uchun iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribalarini samarali qo'llash usullari o'rganilgan. Mualliflar rivojlangan mamlakat sifatida qisqa muddat ichida «uchinchi» dunyo mamlakatidan «birinchi»siga chiqa olgan va «korrupsiyani yenggan mamlakat» deya nomlanadigan Singapur davlatini tanlagan va uning qilgan islohotlarini mustaqil xulosalar orqali milliy iqtisodiyotda foydalanishni ilgari surgan.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ  
С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН  
(СИНГАПУРСКИЙ ОПЫТ)**

*Ибрагимов Ганижон Гайратович- ТДИУ, "Инновацион  
Менежмент" кафедрasi PhD доценти,  
Эркинжонов Диёрбек Махмуджон ўгли- ТДИУ, "Менежмент"  
Факультети, 3-курс талабasi*

*В статье развитие национальной экономики государства рассматривается как главная задача, и изучаются методы эффективного применения опыта экономически развитых стран для этого роста. В качестве развитой страны авторы выбрали страну Сингапур, которая смогла за короткий промежуток времени подняться из страны «третьего» мира в «первую» и известна как «страна, победившая*

коррупцию», и путем самостоятельных выводов способствовал использованию его реформ в народном хозяйстве.

## IMPROVING THE NATIONAL ECONOMY USING THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES

(THE SINGAPORE EXPERIENCE)

*Ibragimov G'anijon G'ayratovich – TSUE, PhD associate professor  
of the Department of “Innovative Management”*

*Erkinjonov Diyorbek Maxmudjon o'g'li – TSUE, 3rd year student of the  
Faculty of Management*

*In the article, the development of the national economy of the state is seen as the main task, and the methods of effective application of the experiences of economically developed countries for this growth are studied. As a developed country, the author chose the country of Singapore, which was able to rise from the "third" world country to the "first" country in a short period of time and is known as "the country that has defeated corruption", and through independent conclusions, he promoted the use of its reforms in the national economy.*

***Tayanch soʻz:*** milliy iqtisodiyot, ishlab chiqarish, Singapur, yalpi ichki mahsulot (YaIM), korrupsiya, monopoliya, islohot, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, rivojlanish.

***Ключевые слова:*** Национальная экономика, производство, малый бизнес и частное предпринимательство, Сингапур, коррупция, монополия, реформа, валовой внутренний продукт (ВВП), разработка.

***Key words:*** national economy, production, corruption, monopoly, reform, gross domestic product (GDP), Singapore, small business and private enterprise, development.

### Kirish

Mamlakatda mavjud barcha iqtisodiy resurslardan unumli va samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati tom maʼnoda mana shu resurlardan qay darajada foydalanganligi bilan ushbu omillarning oʻzagini tashkil etadi. Shu bois iqtisodiy oʻsish darajasi va imkoniyatlari koʻp

ji hatdan iqtisodiy salohiyatning milliy iqtisodiyotning barcha daraja (mikro, mezo va makro daraja)laridagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishga qaratilgan strategik dastur va rejalar bevosita mamlakat iqtisodiy salohiyati, uning xususiyatlari, hozirgi holati, kelajak imkoniyatlariga asoslanib ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>1</sup> PF-60-sonli farmonida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab qo‘yilgan. Mintaqa imkoniyatlari, resurslar va ulardan samarali foydalanish darajasini aniqlash, strategik vazifalarga erishish yo‘nalishlarini o‘zida mujassamlashtirgan hududiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqishda mavjud va kelajakdagi salohiyatni hisobga olish va uni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga erishish va uni yuksaltirish masalasi dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda tez sur‘atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotda O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda va bu vazifaning yechimi sifatida bir qancha rivojlangan mamlakatlar modeli mavjud bo‘lib, ana shu rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish hamda mamlakat hududida xalqaro tajribalar asosida islohotlar amalga oshirishdir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Ta’kidlash lozimki, mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, bu ishlar uchun samarali islohotlar amalga oshirish va takliflar berishda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunlarining qabul qilinishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martidagi PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni [https:// lex.uz/docs/5841063](https://lex.uz/docs/5841063)

kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo'yicha tadbirlar belgilangan.<sup>2</sup>[2] Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor masala bo'lganligi sababli, bu haqidagi ilmiy ishlar, amaliy dasturlar, nashr qilingan adabiyotlar yetarlicha topiladi. Mavzuga oid nashr qilingan ilmiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotning rivojlanishi uchun bir qancha islohotlarni amalga oshirishni afzal bilishadi. Ammo bu ustuvor masala uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishga oid ilmiy maqolalar, adabiyotlarni ko'p emas.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yulida horij tajribasini o'rganar ekanmiz, Singapur bosh vaziri Li Kuan Yuning "Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga" nomli asarini o'rganish foydadan holi bo'lmaydi. Bosh vazir lavozimini 35 yoshida egallagan Li Kuan Yu shunday yozadi: "Menda ikkita yul bor edi: birinchisi - yurti talash, qarindosh-urug'larimni atrofimga yig'ish, ularga mansab berish, ularni dunyoning eng boy odamlari ro'yxati elon qilinadigan "Forbes" jurnaliga kiritish, buning evaziga xalqni xech narsasiz qoldirish. Ikkinchi yo'l - xalqimga xizmat qilish va mamlakatni jahondagi 10 ta eng rivojlangan mamlakat safiga qo'shish. Men ikkinchi yo'lni tanladim." [4] U o'zi o'ylagandek Singapurni eng rivojlangan davlatlar safiga qo'shdi. Li Kuan Yu o'z asarida mamlakat rivoji uchun zarur bo'lgan bir qator masalalarni bayon qilgan. Ular qatoriga iste'dodlarni tarbiyalash va jalb etish, o'qituvchilarning obro'sini joyiga qo'yish, korrupsiyaga qarshi kurash yoxud xokimiyatni tozalash, yo'llardagi tirbandlik bilan kurash, qonun ustuvorligini taminlash, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va boshqalar kiradi. Umuman olganda Singapur tajribasini har bir iqtisodchi olim jiddiy o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, B.M. Babakulov, K.Sh. Yuldashev, Sh.S. Sharifov kabi dots.nt olimlarning

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martidagi PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

«Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar» kitobida «bizga bugun yangidek tuyulgan bozor iqtisodiyoti to‘g‘risidagi fikrlar Adam Smit tomonidan 1776-yili chop etilgan «Xalqlar boyligi» asarida asosan to‘la tahlil etib berilgan. Ba’zi iqtisodiy g‘oyalar esa qadimdan ma’lum. Ularni o‘rganish va eng muhimi hayotga tadbiq etish yaxshi samara beradi, ko‘p hollarda Amerikani yangidan kashf etishga xojat қолмайди.» kabi fikrlar berilgan. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangicha islohotlar amalga oshirish shart emas, tajribadan o‘tgan islohotlarni mamlakatda tatbiq qilish kifoya. Toki, «Amerikani qayta kashf etish» zarur emas.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy maqolada ko‘tarilgan muammoni atloflicha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik kabi usullardan keng foydalanildi.

### **Natija va muhokama**

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha yangi samarali usullarni olishning asosiy yo‘llaridan biri bu - rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqolada aynan shu masala bo‘yicha oxirgi 60 yilda «uchinchi» dunyo mamlakatidan «birinchi»siga ko‘tarila olgan Singapur davlatining tajribalari, korrupsiyani yengish uchun qilingan harakatlari, davlat rivoji uchun qilingan islohotlari tahlil qilingan.

Mustamlakachilik zulmi ostida uzoq vaqt jabr ko‘rgan va o‘tgan asrning 60 yillarida qashshoq davlatlar qatorida bo‘lgan Singapur bir qancha omillardan unumli foydalanish evaziga favqulodda jadal o‘sish sur‘atlariga erishdi. Mamlakat aksariyat aholisi savodsiz, haroba uylarda yashovchi, har qadamda korrupsiya, giyohvand moddalar savdosi, dengizda esa qaroqchilik hukm surgan mudhish bir davrlarni boshdan kechirgan. Biroq, bugungi kunda bu mamlakatni ertaklar, orzular shahri, rang-barang va jozibador, rivojlangan iqtisodiyot, texnologik makon, yashash uchun eng yaxshi joy, yetakchi moliya markazi, dunyoning eng qimmat shaharlaridan biri deb atashadi. Bundan tashqari, har bir


davlat farovonlikka erishishni maqsad qilib olar ekan, birinchi o'rinda o'z rivojlanish strategiyasini tanlab oladi. Bunda ushbu maqsadga erishish uchun turli omillar bor edi. Shunday omillardan biri – bu yetuk boshqaruvchilikka, siyosiy bilimga va mahoratga ega bo'lgan yetakchining bo'lishidir. XX asrning ana shunday siyosiy arboblardan biri bu Li Kuan Yudir. Uning davrida mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning natijasi o'laroq Singapur davlati bugungi kunda eng rivojlangan davlatlar qatoridadir. Buni uning tarixiy taraqqiyot yo'liga nazar tashlash orqali ham bilib olish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bir tomondan qonunchilik uzoq Angliyadan, ya'ni Britaniya mustamlakachilari tomonidan import qilingan, ikkinchi tomondan huquqni muhofaza qiluvchi organlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish qobiliyatiga ega emasdi. Amaldorlarning aksariyati esa korrupsiya botqog'iga botib bo'lgandi. Aholining ko'pchiligi savodsiz bo'lib, o'z huquqlarini himoya qilolmasdi. Mamlakat rahbarlari korrupsiya va o'zboshimchalikni ildizi bilan qo'porib tashlash kerakligi, busiz mamlakatning kelajagi yo'qligini tushunib yetadi.

Singapur taraqqiyotining «ota»si o'z hokimiyatining dastlabki kunlaridanoq jamiyatining barcha qatlamlarida korrupsiyani yo'q qilish bo'yicha keng qamrovli va aniq mezonlarni o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqadi. Mamlakatda korrupsiyani to'xtatib qolishning birinchi o'rindagi vazifasi o'laroq mansabdor shaxslarning o'z bilganlaricha harakat qilishlari imkoniyatlarini kamaytirish boshlanadi.

Mamlakatda korrupsiyaga qarshi siyosat milliy qadriyatlarga amal qilishdan ko'ra ko'proq zaruriyat sifatida talqin etiladi. Singapur xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilish bosqichida, avvalo ulardan noto'g'ri maqsadlarda foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqardi. Mamlakatda ayrim korrupsiya hodisalari ro'y berganda uning ishtirokchilari tergov qilinib, aybdorlar sudlanib, qattiq jazoga tortilgan. Bunda Li Kuan Yu barchaga, hatto o'z yaqin qarindoshlariga nisbatan ham qattiqqo'l va adolatli siyosat yuritgan, ularga ham boshqalar singari og'ir jazo qo'llangan. Islohotlar aks-sadosi o'laroq, mamlakatda

aholi o'rtasida aksilkorrupsiya mentaliteti shakllandi. Korrupsiyaga qarshi kurashga rahbarlik bevosita siyosiy rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni davlat mansabdorlari bu jirkanch illat keng quloqch yoymasligidan birinchi o'rinda manfaatdor va bu jamoatchilik tomonidan



qo'llab-quvvatlanadi

**1-rasm. Singapur davlatining Transparency International tomonidan The Corruption Perceptions Index (CPI) me'yorlariga asoslangan korrupsiya reytingi.**

Ma'lumot o'rnida, Transparency International tomonidan 2022 yil uchun e'lon qilingan reytingda Cingapur korrupsiyani qabul qilish eng past ko'rsatkichli mamlakatlardan biri sifatida, dunyo miqyosida 5-pog'onada qayd etilgan. Mos ravishda ushbu reytingda O'zbekiston 180 davlat orasida 126-o'rinni egallagan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatda 7ta asosiy taraqqiyot yo'nalishi – moliya, transport xizmatlari, logistika, shaharsozlik, sog'liqni saqlash, raqamli iqtisodiyot va ilg'or ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida tanlab olingan.

Shuningdek, mamlakatda belgilangan islohotlarni o'tkazish uchun mablag' zarur edi. Shu maqsadda xorijiy tadbirkor va sarmoyadorlarga turli imtiyozlar berilib, mamlakatga jalb qilindi.



«Biz har bir sarmoyadorni mamnuniyat bilan kutib oldik. Ishlab chiqarishni boshlash uchun, ularga jon-jahdimiz bilan yordam qildik», deb yozgan Li Kuan Yu o'z tarjimai holida.

Xorijiy sarmoyalarni mamlakatga jalb qilishni kuchaytirish maqsadida dastlabki bosqichda chet elliklar uchun yuz foiz mulkka ega bo'lish hamda topilgan foydani to'liq olib ketish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Shuningdek, mamlakatdagi vaziyatni tubdan o'zgartirish uchun hukumat odamlarning ongiga yangi standartlarni joriy etishni boshlaydi. Iqtisodiy jihatdan va korrupsiyadan holi mamlakat qurish uchun singapurliklar 3ta asosiy tamoyilni tanlaydi. Ular:

- Meritokratiya
- Pragmatizm
- Halollik

Ushbu 3ta tamoyil mamlakat tizimining 3ta ustuniga aylantirildi.

Meritokratiya bu har qanday ijtimoiy qatlamda eng munosib va qobiliyatli shaxslarni, ularning kasbiy fazilatlarini va alohida xizmatlariga adolatli va obyektiv baho berish asosida davlat xizmatlariga jalb etish, ya'ni yuqori salohiyatli insonlarni mamlakatga bosh qilish.[3]

Ikkinchi tamoyil bu pragmatizm. Pragmatizm o'zining va boshqalarning tajribasidan ijobiy foydalanish qobiliyati. Barcha ijobiy va salbiy tomonlarni inobatga olgan holda uni o'zida qo'llashdir.

Uchinchi tamoyil bu yuksak ma'naviyat va halollik. Aholida yillar davomida halollik fazilati shakllantirib keltirilgan. Aynan halollik Singapur kuch tuzilmalarida muvaffaqiyatli ishlashning asosiy shartidir. Halollik – davlat taraqqiyotining o'zagi.

Bosh vazir topshirig'iga ko'ra, mahalliy va xorijiy tadbirkorlar o'rtasida biznesni osonlashtirishga oid so'rovlar muntazam o'tkazilgan, tadbirkorlar dardiga quloq tutilgan. Buning natijasida Singapurda tadbirkorlik faoliyati keng quloq yoydi. Tadbirkorlarning faoliyati hukumat tomonidan rag'batlantirila boshlandi. Biznes sohasida qonunchilik soddalashtirildi va mamlakatda qabul



qilinadigan qonunlar manfaatdor tomonlarning fikrlarini o'rganish bilan birgalikda olib borildi.

Natijada ko'pgina xalqaro transmilliy kompaniyalar Singapurda keng ko'lamli yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun poydevor qurishadi. Ma'lumot uchun, Jahon bankining «Biznes yuritish 2022»<sup>3</sup> yillik hisobotida biznes yuritish qulayligi bo'yicha Singapur 2-pog'onada qayd etilgan.[6]

Bugungi kunda Singapurda 5,4 million aholi istiqomat qiladi va mamlakat YaIM 379 million dollarga teng. Ishsizlik darajasi 2,6 foiz. Yillik daromad har bir fuqaroga 72 ming dollardan yuqori hisoblanadi.[7]

### **Xulosa**

Demak, Singapurni tajribasi o'rganiladigan bo'lsa, muvaffaqiyatning asosiy omillari: korrupsiyani yo'qotish; aqlli insonlarning hukumatni boshqarishi; tadbirkorlikka katta imkoniyatlar yaratib berilishidir.

Singapur tajribalari O'zbekiston islohotlariga tadbiq qilinsa, iqtisodiyotning rivojlanishi tez sur'atlarda namoyon bo'ladi.

Meritokratiya omilini O'zbekiston hukumat boshqaruviga qo'llash. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'nggi yillarda qilayotgan islohotlari bunga misol sifatida ko'rilishi mumkin. Ya'ni davlat boshlig'ining farmon va qarorlari asosida oxirgi yillarda ko'plab tashkilotlar, davlat muassasalariga munosib yosh kadrlarni yuqori o'rinlarga joylashtirmoqda.

Ikkinchi qo'llanishi kerak bo'lgan tamoyil bu pragmatizm. Hozirda rivojlanishi tez sodir bo'layotgan mamlakatlar islohotlariga nazar solinsa, rivojlangan davlatlar tajribalaridan keng foydalanayotganligi namoyon bo'ladi. Bunda albatta, tajriba olinayotgan davlatning geografik joylashuviga, madaniyatiga va boshqa bir qancha omillariga e'tibor qaratish talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligiga endigina 31 yil bo'lganiga qaramay, yuksak natijalarga erishildi. Bundan keyingi amalga oshiriladigan islohotlarda

<sup>3</sup> <https://archive.doingbusiness.org/en/rankings>

ham «sinovdan o'tkazilgan» tajribalardan foydalanish nafaqat iqtisodiyotga, balki, mamlakat rivojiga yuksak samara olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, ko'plab davlatning ojiz tomonlaridan biri bu monopoliya hamda korrupsiya hisoblanadi. Shuningdek, mamlakat rivoji uchun bo'ladigan eng katta to'siq ham mana shular. Monopoliyani butunlay yo'q qilish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka imkoniyatlar yaratib berish, xorijiy davlatdan investitsiyalarni jalb qilish asosiy yo'l sifatida ko'riladi.

Shuningdek, bu mamlakatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha amalga oshirgan islohotlari mamlakat rivojining asosiy muvaffaqiyat kalitlaridan biridir. Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, Singapur davlati tadbirkorlik qilish uchun eng qulay davlatlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab esa, hukumatning yangi tashkil topgan tadbirkorlik uchun qilinadigan imtiyozlar va soliqlardan ozod qilishi yoki kamaytirishidir. Ma'lumki, mamlakatda xususiy tadbirkorlik rivojlansa, chet davlatlardan investitsiya kiradi va aholi turmush tarzi yaxshilanadi. Bu esa, mamlakat rivojlanishining asosiy omillaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga nisbatini \$4mingga yetkazish to'g'risidagi rejalarini amalga oshirishda va mamlakatning iqtisodiy maqsadlariga erishishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyil, islohotlar ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yurtimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'sag'asida turar ekan, avvalambor, monopoliya va korrupsiyadan voz kechishda yuqorida aytib o'tilgan qator amaliy tajribalarni qo'llash biz tanlagan yo'lni bir qancha yengillashtiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martidagi PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. Bobbie Johnson. Meritokratiyaning kelib chiqishi. – Warbletoncouncil, 8 aprel 2021-yil.
4. Li Kuan Yu. Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000). – Toshkent, “Akademnashr”, 2022. – 236 bet.
5. Б.М.Бабакулов, К.Ш.Юлдашев, Ш.С.Шарифов, Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. – Samarqand, 2021. – 8-bet.
6. <https://www.worldbank.org/en/businessready>
7. <https://kun.uz/uz/news/2021/06/02/>